

JALOLIDDIN MANGUBERDI- JASORAT VA VATANPARVARLIK NAMUNASI

Salimov Javohir Abdumo'min o'g'li

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika

universiteti CHXT mutaxassisligi

1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarda vatanparvarlik ruxini shakllantirishda Jaloliddin Manguberdining jasorati va qaxramonliklarini namuna qilib ko'rsatish va shu orqali yoshlarga vatanga muhabbat tuyg'ularini singdirish masalalari yoritib o'tilgan. Shuningdek Uning jasorati, vatanparvarligi va qat'iyatligi, bugungi yosh avlodni vatansevarlik ruhi bilan tarbiyalashda muhim o'rnak sifatida ko'rib chiqiladi. Maqola, Jaloliddin Manguberdi shaxsiyati orqali yoshlarga vatanparvarlik, liderlik, strategik fikrlash, qaror qabul qilish, hamkorlik va birlashuv kabi qadriyatlarni singdirishning ahamiyati va usullarini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Jaloliddin Manguberdi, vatanparvarlik, Vatan, liderlik, strategik fikrlash, Xorazmshohlar davlati, Chingizxon, mog'ullar, "Jaloliddin Manguberdi" ordeni, "piyoda yoyandozlar", "sun'iy askarlar", Sind daryosi, betimsoil jasorat.

KIRISH

Jaloliddin Manguberdi (1198–1231) – buyuk xorazmshohlar davlatining so'nggi vakili, xorazmshoh Alouddin Muhammadning to'ng'ich farzandi, mustaqillik uchun fidokorona kurashi, ajoyib sarkardalik faoliyati, shaxsiy jasorati, Vatanga muhabbati bilan tarixdan munosib o'rin olgan davlat arbobi. Uning mo'g'illar istilosiga qarshi kurashi o'sha davr tarixchilari – Ibn al-Asirning "Al-komil fi-t-tarix" (1230 yili yozilgan), Shihobuddin Muhammad an-Nasaviyning "Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangberdi" va "Nafatul masdur" (1234 yili yozilgan), Alouddin Atomalik Juvayniyning "Tarixi jahongushoy" (1260 yili yozilgan), Rashididdin Fazlullohning "Jome'-ut tavorix" (1302–1311) asarlarida yoritilgan. Shihobuddin Muhammad an-Nasaviy "Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangberdi" nomli asarida Jaloliddin Manguberdini quyidagicha tasvirlaydi: "U bug'doyrang, o'rta bo'yi, turkiy qiyofali va turkiyda gapiradigan odam edi. Shu bilan birga forsiyda ham so'zlasha olardi. Uning mardligi, jasurligiga kelsak, yuqorida hikoya qilganim janglardagi faoliyatini eslab o'tish kifoya qiladi. U sherlar orasida eng zo'r sher edi, qo'rqmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botir edi. U yuvosh, muloyim odam edi, jahldor emasdi. U nihoyatda jiddiy edi, kulmasdi, faqat jilmayib qo'yardi, kam gapirardi. U haqgo'ylikni, adolatni ulug'lardi, ammo u yashagan davrdagi g'alayonlar, alg'ov-

dalg'ovlar fe'l-atvorini o'zgartirdi. U qo'l ostidagi odamlarning og'ir hayotini yengilashtirishni xohlardi, ammo u yashagan davr qonunlari uni zulm qilishga majbur etardi".

Jaloliddin Manguberdi Alouddin Muhammad va uning turkman kanizagi Oychechakdan (1198 yili) tug'ilgan. U 1215 yilda G'azna, Bomiyon, o'ur, Bust, Takinobod, Zamindovar, Shimoliy Hindiston yerlariga hokim va taxt vorisi etib tayinlangan. Momosi Turkon xotun va qipchoq amirlarining noroziligi sababli ukasi Qutbiddin O'zloqshoh foydasiga vorislikdan mahrum etildi. Alouddin Muhammad farzandlarini 1220 yili to'plab, o'limi oldidan Jaloliddin Manguberdi Xorazm hukmdori deb e'lon qildi. Urganch mudofaasi uchun yetib kelgan Jaloliddin Manguberdi bu yerda Tukon xotunning akasi Xumor Teginning sulton deb e'lon qilinganligini va unga suiqasd uyushtirilayotganini sezib, uch yuzta suvoriysi bilan Urganchni tark etib, Xuroson tomonga qarab yo'lga chiqadi.

Jaloliddin Manguberdining mo'gullarga qarshi kurashi

Urganchni tark etgan Jaloliddin va Temur Malik tezda Niso shahriga yetib kelishgach, bu yerda mo'g'ullarning 700 kishilik kichik lashkari bilan to'qnashadilar. Kuchlar teng bo'lmasa-da, Jaloliddin dushmanni mag'lub etadi. So'ngra, Nisodan Nishopurga va u yerdan G'azna tomon ot choptiradi. Jaloliddin G'azna shahriga yetmasdan yaqin oradagi Hirot hokimi hamda qaynotasi bo'lmish Amin Malik bilan uchrashadi. Ular bilan birgalikda Qandahor qal'asini qamal qilayotgan mo'g'ullar ustiga yurish qiladilar. Jaloliddin bu kurashda harbiy ilm tarixida ilk bora "piyoda yoyandozlar"ni mo'g'ullarning otliq askarlariga qarshi qo'yadi. Inglizlar keyinchalik bu harbiy usulga yuqori baho berib, o'zlarining "Kress" yonidagi mashhur janglarda undan foydalanishadi. Uch kunlik jangdan so'ng mo'g'ullar mag'lub etiladi. Shundan so'ng, Jaloliddin G'azna tomon yo'l oladi. U 1221 yilning fevral oyida G'azna shahriga yetib keladi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, G'azna xalqi sulton Jaloliddinni katta tantana bilan kutib olgan ekan. Jaloliddin Nishopur, Niso va G'azna atrofida mo'g'ullarni mag'lubiyatga uchratganini eshitgan Chingizxon bundan tashvishga tusha boshlaydi.

Jaloliddin Manguberdi G'aznaga yetib kelganda, Xorazmshohning tarqalib ketgan qo'shini uning atrofiga to'plana boshlaydi. G'aznada Jaloliddinning xizmatiga Sayfiddin O'g'roq Al-Xalajiy, Balx hokimi A'zam Malik, afg'on qabilalari sardori Muzaffar Malik va qarluqlar rahbari Al-Hasan qarluq o'z qo'shinlari bilan qo'shiladilar. Tarixiy manbalarga ko'ra, jamlangan lashkarning jami soni 90-130 ming kishi atrofida bo'lgan. Sulton bu qo'shin bilan Voliyon qal'asi atrofidagi mo'g'ullarning Bekchak va Timqur boshliq qo'shinni yakson qiladi.

Chingizxon bu shum xabarni eshitib, o'zining eng ishongan lashkarboshisi Qayqur no'yon (Shiki Xutuxu) boshchiligida 30 ming kishilik qo'shin yuboradi. Jaloliddin

Manguberdi va Shiki Xutuxu o'rtadagi to'qnashuv 1221 yilning yozida Parvon dashtida bo'lib o'tadi. Bu jangda sulton Jaloliddin mo'g'ullarga qarshi yangi taktik usulni qo'llaydi. Sulton o'z lashkariga otdan tushib, ot jilovini bellariga bog'lashni va kamon bilan dushmanga qarshi jang qilishni buyuradi.

Tun qorong'usiga qadar davom etgan olishuvda ikki tomonning birortasiga zafar kulib boqmaydi. Ertasi kuni Qayqur no'yon harbiy hiyla ishlatmoqchi bo'ladi. U dushmanni yangi kuchlar kelib qo'shildi, deb ishontirish maqsadida kigiz va choponlar orasiga xashak tiqib, "sun'iy askarlar" yasab ularni otlar ustiga o'tqazib qo'yadi. Bu hiyla Jaloliddin qo'shinini dastlab vahimaga soladi. Hatto, ba'zi sarkardalar chekinishni maslahat beradilar. Ammo, sulton og'irlik va bosiqlik bilan avvalgi kundagi taktika asosida otdan tushib kurashishga buyruq beradi.

Mo'g'ullarning bir necha hujumlari qaytarilgach, Jaloliddinning buyrug'i asosida qo'shin chalingan karnay sadolari ostida otlarga minib, dushmanga hamla qiladi. Jangda sulton Jaloliddinning qo'li baland keladi. Shiki Xutuxu tirik qolgan odamlari bilan Chingizxon huzuriga borib, Jaloliddin Manguberdining qanday jang qilganini so'zlab beradi. G'azablangan mo'g'ul xoqoni o'zining barcha qo'shinini to'plab, shaxsan o'zi sultonning ustiga bostirib boradi.

Jaloliddin Manguberdi el-yurt istiqloli uchun kurashgan, bunga o'z hayotini bag'ishlagan ajdodlarimizning buyuk namoyandasidir.

Ona yurtga muhabbat va sadoqat, or-nomus va shon-sharaf bobida unga teng keladigan ulug' shaxslar dunyoda kamdan-kam uchraydi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Bu fikrimizni donishmand alloma va odil hukmdor Mirzo Ulug'bekning: "Olam ahli Jaloliddindan oldin ham, keyin ham bunday bahodir jangchini ko'rmagan. Bu zotning azmu shijoati oldida hatto buyuklikning o'zi ham ta'zim qiladi", degan so'zlari yaqqol tasdiqlaydi.

Sulton Jaloliddin o'n bir yil davomida mo'g'ul bosqinchilariga qarshi 300 dan ortiq janglarda ishtirok etib, yovlarni titratib keldi. Bunday jasorat har qanday odamni ham hayratda qoldiradi.

Yengilmas sarkardaning Sind daryosi bo'yida o'z qo'shinidan to'rt marta ko'p bo'lgan Chingizxon qo'shiniga mardona qarshi chiqqanini eslaylik. Yoki Isfahon yaqinidagi jangda bor-yo'g'i 14 nafar askari bilan mingdan ziyod mo'g'ul lashkarining qurshovini yorib o'tganini yodga olaylik.

Hatto Chingizxondek sarkarda ham uning matonatini ko'rib: "Jaloliddindek qahramon farzandi bor ota naqadar baxtlidir", deb tan berishga majbur bo'lgan.

Shu bois uning merosini o'rganish, yosh avlodga bu boy xazinaning qadr-qimmati, ahamiyatini tushuntirish muhimdir.

Shubhasiz, Jaloliddin Manguberdi – milliy qahramonlarimizdan biri. 1999 yili mamlakatimizda jasur ajdodimiz tavalludining 800 yilligi nishonlangan. Diyorimizda unga atab bir necha haykallar oʻrnatilgan. 2000 yilning 30 avgust kuni “Jaloliddin Manguberdi” ordeni taʼsis etilgan. Bu orden bilan mamlakat mustaqilligini, Vatan sarhadlarini, ona yurt obodligi yoʻlida samarali mehnat qilayotgan yurtdoshlarimiz taqdirlanishi anʼanaga kirgan.

Shu bilan birga, harbiy mahorat, qahramonlik va jasorat namunalarini koʻrsatgan, davlatning mudofaa qudratini mustahkamlashga ulkan hissa qoʻshgan qoʻmondonlik tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchilar mazkur orden bilan mukofotlanadilar. 2003 yilning 22 avgust kuni ushbu orden bilan Xorazm viloyati mukofotlangan.

Jaloliddin, shuningdek, Turkmanistonda ham hurmat qozongan boʻlib, uning moʻgʻullarga qarshi jasorati bugungi kunda ham tarannum etiladi. Ajdodimiz hayotiga oid tarixning yangi qirralarini ochish, oʻtmishning oʻrganilmagan sahifalarini kashf etish bugun har qachongidan ham muhimdir.

Ozodlik kurashchisi, dovyurak sarkarda, milliy qahramon, jahon xalqlari tarixida oʻchmas iz qoldirgan Jaloliddin Manguberdi jasoratining yosh avlodni milliy gʻurur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi tarixiy ahamiyati albatta, katta. Olimlarning fikricha, moʻgʻullarga qarshi kurashdagi jasorati, jang taktikasini oʻrganish yosh vatanparvarlar uchun ham zavqli, ham maroqli. Ayniqsa, tarixda nom qoldirgan 1221 yilda boʻlib oʻtgan Parvon jangida moʻgʻullarga qaqshatqich zarba beradi. Milliy qahramonimizning dushmanga asir tushmay oʻzining oti bilan qoyadan suvga sakrashi kishini larzaga soladigan jasoratdir. Afsonaga koʻra, Chingizxon yosh sultonning jasoratiga tan berib, oʻzining oʻgʻillariga: “Ota oʻgʻil mana shunday boʻlishi lozim”, degan ekan. Jasoratli oʻgʻlon oʻtda yonmas, suvda choʻkmas, nomi bilan tillarda doston, oʻzbek xalqining mard oʻgʻlonini yoshlarga oʻrnak boʻlguvchi sifatleri, oʻrganilmagan jihatleri koʻp.

Jaloliddin Manguberdining hayoti va faoliyatining kengroq oʻrganish va targʻib etish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 23 iyulda tegishli farmoyishi qabul qilindi. Unda Jaloliddin Manguberdining harbiy mahoratiga oid badiiy, ilmiy publitsistik sahna asarlarini yaratish masalasiga alohida eʼtibor qaratilgan. Turkiya, Moʻgʻiliston, Sharq, Kavkazorti va boshqa xorijiy mamlakatlarda Jaloliddin Manguberdi tarixini oʻrganish borasida izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar bilan aloqani oʻrnatish, ilmiy-maʼrifiy muassasalar, kutubxona va muzeylar, arxiv va qoʻlyozmalar fondlarida saqlanayotgan nodir asarlar, tarixiy xujjatlarni oʻrganish, ulardan nusxalar olish ishlarini tashkil etish va yana bir qator amaliy, ezgu ishlarni olib borish koʻzda tutilgan.

Xulosa: Xulosa shuki Jaloliddin Manguberdining kurash va hayot yoʻli mardlik, jasoratda nafaqat yurtimiz yoshlari, xalqimiz ozodligi hamda mustaqilligining tom

ma'noda qadriga yetuvchi bashariyat uchun ibrat ramzidir. Uning vatan mustaqilligi yo'lida so'nmas va betimsoil jasorati yuksak ehtiromga loyiq. Shuningdek Jaloliddin Manguberdi shaxsi mardu-maydonlik sarchashmasi hamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sagdullayev A. S. O'zbekiston tarixi. -T.: VNESHINVESTPROM, 2019.
2. Sodiqov X. Sulton Jaloliddin Manguberdi. -T.: ART FLEX, 2009.
3. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sind_daryosi_bo%CA%BBidagi_jang
4. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan Tarixi. K.1. -T.: Sharq, 2010.
5. Ismoilov, N. B. (2023). YANGI O 'ZBEKISTONDA TA'LIM VA ILM SOHALARI RIVOJLANISHNING YANGI DAVRIDAGI MUHIM ASOSLARI. International scientific journal of Biruni, 2(1), 81-88.
6. Ismoilov, N. B. (2022). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DINIY BAG 'RIKENGLIK VA KONFESSIYALARARO HAMKORLIKNI TA'MINLASH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(12), 1116-1121.
7. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Jaloliddin Manguberdi hayoti-T.: O'zbekiston, 2006.
8. Jabborov I. Buyuk Xorazmshoxlar davlati. - T.: Ilpax, 1999.
9. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi: 7-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan uchinchi nashr. - T.: Sharq, 2017.